

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

No 4

2025

APREL




Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN
ACCES

ULRICH'S WEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛЯЛ

TDU
DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
1931



TULON KARIMOV NOMIDADI
TOSHKENT DAVLAT TEKHNIKA UNIVERSITETI
TDTU

1955
TOSHKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT
AKHİMET - QURİLLİ
UNIVERSİTETİ

TJU
TOSHKENT KİMYO - TEKNOLOGİYA
AKHİMET - QURİLLİ
UNIVERSİTETİ

TJU
TOSHKENT POLİTEKNIK İNSTITUTI
DZAKİ POLİTEKNIK İNSTITUTI
1991



MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik

Sharipov Kongratbay Avazimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, TDIU kengash kotibi

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otobek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbanov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dots.nt

Bauyedtinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor. Buxoro davlat texnika universiteti

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil
28-avgustdagি 360/5-son
qarori bilan “Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etishga tavsiya etilgan milliy
ilmiy nashrlar ro'yxati”ga
texnika va iqtisodiyot fanlari
bo'yicha “Muhandislik va
iqtisodiyot” jurnali ro'yxatga
kiritilgan.

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Роль искусственного интеллекта в управлении финансовым потенциалом предприятий.....	10
Юсупов Файзулла Якубович	
Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini moliyaviy vositalar orqali takomillashtirish: "Navoiy" EIZ misolida.....	20
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Davlat xardilari jarayonini boshqarish va nazorat qilishning muhim jihatlari	26
Xodjamqulov Shahboz Sherali o'g'li	
Oliy ta'lim tizimini baholash: milliy model va global standartlar	31
Hakimov Hakimjon Abdullo o'g'li, Hakimova Gulnoza Abdulloyevna	
Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishda xorij tajribasi	37
Qodirov Iskandar Alisher o'g'li	
Механизмы адаптации рынка труда к новой модели экономического роста: теория, практика и цифровые решения	41
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
Xorazm viloyati eksport strategiyasini takomillashtirishning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlari.....	50
Fozil Xolmurotov	
Suv resurslarini tejashda aqlii sug'orish tizimlarining ahamiyati	62
Abdullahov A., Karimov Anvarjon Muqumjonovich	
To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati raqobatbardoshligini oshirishning marketing vositalari	68
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
The current state and development trends of innovative activity in agriculture	72
Aytmuratova Miyrigul Zhalgasovna	
Методология оценки инновационной деятельности	78
Алиева Эльнара Аметова	
Yashil iqtisodiy o'sishda raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlikning integratsiyalashuvi.....	86
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiya qilish yo'llari tahlili.....	92
Abdurazzoqov Abdualim Abdujabbor o'g'li	
Направления повышения эффективности средств, направляемых на обеспечение занятости населения и сокращение бедности	97
Маликов Ауезхан Жорабекович	
O'zbekiston uy xo'jaliklarining farovonlik koeffitsiyenti: blackorby va donaldson yondashuvi asosida tahlili	106
Boltayeva Dilafza Jumaqulovna	
O'zbekistonda aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zgarish dinamikasi	114
Qo'shbaqov Aybek Shovqiyevich	
Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, davlat iqtisdoi siyosatini takomillashtirish va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning samaradorligini oshirish yo'llari	123
Muratbaeva Leonora Muxamedjan qizi, Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich	
Yangi o'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari	132
Tojiyev Javlonbek Rustamovich	



Mulkchilik shakliga ko'ra tijorat banklarida depozitlarining amaldagi holati tahlili	138
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Bandlikni ta'minlashda moliyaviy mexanizmlarning o'rni va ahamiyati	151
Karimjonov Muhammadrasul To'iqinjon o'g'li	
Mustaqil direktorlar ulushi, nomoliyaviy axborotlarning oshkor qilinishi va dividend siyosatining kapital qiymatga kompleks ta'siri.....	159
Urinov Bobur Nasilloyevich	
Turizm orqali ish o'rinalarini yaratish va bandlik muammosini kamaytirish imkoniyatlari	167
Kaxramanova Sevda Shamsiddin qizi	
Kam quvvatli gidroelektr stansiya uchun mos bo'lgan invertor, reduktor, akkumulyator va generatorni tanlash.....	173
Xamrayev Og'abek Oybek o'g'li, Davletov I.Y.	
Raqamlı iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlarini ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari.....	182
Ibragimova Gulnoza Sayidmuradovna	
Terminologiya va ilmiy terminologiya xususida.....	188
Ruziyeva Gulnoz Temirqulovna	
O'zbekiston Respublikasida innovatsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish yo'llari.....	192
Ramazonov Javohir Bekzod o'g'li	
Bazalt chiqindi toshqol asosidagi kam suv talabchan sementlarning samaradorligini oshirish	197
Babayev Sultonbek Sunnat o'g'li	
Qashqadaryo qayta tiklanuvchi energiya manbalarining samaradorligini turli yondashuv asosida baholash.....	203
Omonova Sitora Zafar qizi, Utayev Sobir Achilovich	
Tilshunoslikning mexanika muhandisligi terminlari xususida.....	208
Mansurova Nafisa Qamariddinovna	
"Chizma geometriya va perspektiva" fanining arxitektura bilimlari tizimidagi roli	213
Yusubjonov Jonibek Farxod o'g'li	
Geodezik plan olishning avtomatlashgan usullari.....	219
Mamajonova Nodira Alisher qizi	
Zamonaviy arxitektura interyer dizaynida milliy grixva islomiy naqshlar uyg'unligi	225
Qo'chqarov Baxodir O'Imasovich	
Qurilishda mehnat unumdorligini oshirish va uni prognozlashning nazariy asoslari	230
Abduvaliyev Bekzod Muhiddin o'g'li	
Qishloq aholi hududlaridagi zamonaviy innovatsion o'zgarishlarining o'rta ta'lim maktablari tuzilishidagi ta'siri	235
Abdurahmonov Olimjon Obboqul o'g'li	
Seysmik hududlarda qurilish konstruksiyanlarini to'g'ri tanlash	241
Egamberdiyeva Shaxnoza Abdurashidovna	
Arixiy yodgorliklarning me'moriy-rejaviy, konstruktiv va badiiy bezak yechimlari.....	251
Sotvoldiyev Azamatjon Akramjon o'g'li	
Xitoy va O'zbekiston tajribasi asosida soliq to'lovchilar reytingi tizimi orqali fiskal intizomni mustahkamlash.....	255
Abdullahayev Zafarbek Safibullayevich	
Turizmga investitsiyalar iqtisodiyotimizga ijobiy ta'siri etuvchi omillari sifatida.....	268
Ayubov Illyos Ilhomovich, Tursunov Qosimbek Nodirovich	



Problems of determining the informativeness of input and output parameters in object management	275
Turapov Ulugbek Urazkulovich	
Tijorat banklari faoliyatiga foiz riskining ta'siri: ilmiy-nazariy asoslar va amaliyot tahlili	280
Turdiyev Abdulhakim Qulbazarovich	
Zamonaviy moy filtrlarining dvigatel ishlash resursini oshirishiga ta'siri.....	290
Mirzakarimov Rustambek Xusanboy o'g'li	
Qayta tiklanadigan energiya manbalari: zamonaviy global tendensiyalar va O'zbekiston uchun perspektivlar	295
Bozarov Elyor Boboqulovich, Rustamova Sarvinoz Azizbek qizi	
Kichik biznes va xususiy tadbirdorlikni rivojlantirishda investitsiyaning ahamiyati.....	300
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
Strengthening and enhancing the export potential of industrial enterprises for sustainable growth.....	305
Researcher of Tashkent State University of Economics	
Davlat tashkilotlarining bitiruvchilarga bo'lgan ehtiyoji va talablari.....	310
Daminova Barno Esanovna, Bozorova Irina Jumanazarovna,	
Pardayeva Muqaddas Zafar qizi	
Erkin iqtisodiy hududlar soliq rejimlarini takomillashtirishning xorij tajribasi.....	320
Boltayev Jo'rabek Yusofovich	
Tabiiy va sun'iy tolalar sanoatini diversifikatsiya qilish orqali investitsion jozibadorlikni oshirish.....	325
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B segmentida omnichannel marketing strategiyalarining qo'llanishi	331
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
O'zbekistonda kichik biznes faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari.....	338
Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	
Task mapping and job scheduling implications of fdi inflows and governance quality metrics	343
Nilufar Zikirullaeva Dilmurod qizi	
Yangi O'zbekiston savdo-iqtisodiy munosabatlari rivojlanishida xizmatlar eksportining ahamiyati.....	350
Eshanulov Baxodir Abduraxmon o'g'li	
Budget daromadlarini shakllantirishda yirik soliq to'lovchilarning tutgan o'rni	357
Tohirov Shuhrat Niyoz o'g'li	
Davlat maqsadli jamg'armalari resurslarini boshqarish va samarali foydalanish yo'nalishlari.....	361
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Kichik biznes hamda xususiy tadbirdorlik subyektlari amaliy holati, sohani rivojlantirish asosları	365
Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g'li	
Korxonalarda moliyaviy instrumentlarning hisobi va audit masalalari	371
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Tijorat banklarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha zamonaviy tendensiyalar	375
Latipova Lola Ilhomovna	
Soliq stavkalarini tabaqlashtirish orqali soliq to'lovchilar faoliyatini muvofiqlashtirish	380
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
Transformatsiyalash jarayonida tijorat banklari likvidligini oshirishning nazariy asosları	385
Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li	



The importance of implementing international accounting standards in uzbekistan	393
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS



TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI



Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti
“Moliya” kafedrasи mustaqil tadqiqotchisi

ORCID: 0009-0003-0154-2362

b.poyonov@tsue.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada transformatsiya jarayonida O'zbekiston tijorat banklarining likvidligini oshirish orqali bank xizmatlari samaradorligini yaxshilash masalalari yoritilgan. Bank likvidligi tushunchasi, uning rivojlanish tarixi va istiqbollari tahlil qilingan. Shuningdek, innovatsiyalarni joriy etish asosida bank likvidligini oshirish zarurati va mavjud muammolar ko'rib chiqilgan hamda ularni bartaraf etish bo'yicha muallif tomonidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: transformatsiya, tijorat banki, bank likvidligi, innovatsiya, bank xizmatlari, samaradorlik, yangi xizmatlar.

Abstract: This article explores the improvement of banking service efficiency by enhancing the liquidity of commercial banks during the transformation process in Uzbekistan. It analyzes the concept of bank liquidity, its historical development, and future prospects. Special attention is given to the necessity of innovation implementation in boosting liquidity and efficiency, and the author proposes practical recommendations to address the existing challenges.

Keywords: transformation, commercial bank, bank liquidity, innovation, banking services, efficiency, new services.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы повышения эффективности банковских услуг через увеличение ликвидности коммерческих банков в условиях трансформации экономики Узбекистана. Проанализированы сущность ликвидности банка, история её развития и перспективы. Особое внимание уделено необходимости внедрения инноваций для повышения ликвидности и эффективности банковской деятельности, а также представлены практические рекомендации автора по устранению выявленных проблем.

Ключевые слова: трансформация, коммерческий банк, ликвидность банка, инновации, банковские услуги, эффективность, новые виды услуг.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi bevosita bank tizimining likvidlilik darajasini ta'minlash bilan chambarchas bog'liqdir. Bugungi kunda global moliyaviy inqiroz xavfini kuchaytirayotgan omillar, xususan, xalqaro miqyosda milliy pul bozorlarining integratsiyalashuvi va investitsiyalar oqimining



notekisligi fonida ko'plab mamlakatlarda bank tizimining likvidlik ko'rsatkichlari zaiflashmoqda. Natijada, banklarning aktiv va passivlari o'rtafigi nomutanosiblik ortib, milliy iqtisodiyotlar retsessiya xavfi bilan yuzma-yuz kelmoqda. Ayniqsa, G'arbiy Yevropa davlatlari – Gretsya, Irlandiya, Portugaliya, Ispaniya va Kipr bank tizimlarida likvidlik yetishmovchiligi jiddiy moliyaviy inqirozlarni yuzaga keltirayotgani kuzatilmogda [1].

Bank tizimining likvidligini mustahkamlash uchun, birinchi navbatda, barqaror va muddatli resurs bazasini shakllantirish, bank aktivlarining sifatini oshirish, filial va vakillik hisobvaraqlari mablag'larni yetarli moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyalar ulushini oshirish va banklararo raqobatni kuchaytirish zarurati dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, bank tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash va moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish orqali ham likvidlikni ta'minlash muhim omil hisoblanadi.

Global moliyaviy beqarorlik sharoitida bank tizimining elastikligini oshirish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy shoklarni barvaqt aniqlash va yuqori likvidli aktivlar adekvatligini ta'minlash dolzarb vazifalarga aylanmoqda. Xususan, likvid bo'limgan aktivlar va qimmatli qog'ozlarni barqaror moliyalashtirish, 30 kunlik qisqa muddatli davr uchun likvidlik talablarini turli ssenariylar asosida boshqarish, aktivlarning naqdlashuvchanligini oshirish bugungi kun talabi sifatida namoyon bo'imqoda. Shuningdek, uzoq muddatli barqaror moliyalashtirish manbalarini kengaytirish, aktiv va passivlar tarkibida yuzaga keladigan tafovutlarni bartaraf etish, xavf signalizatsiyasi va bank xavfsizlik tarmoqlarini kuchaytirish orqali likvidlik riskini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zarurati kuchaymoqda.

O'zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida bank tizimi likvidlik darajasini qo'llab-quvvatlash va uning barqarorligini oshirish borasida keng ko'lamlı chora-tadbirlar ko'rilmogda. Xususan, bank tizimining huquqiy bazasini va infratuzilmasini takomillashtirish, investitsiyalarni faol jalb qilish, yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga sarmoya kiritishni rag'batlantirish, uzoq muddatli resurslar taqchilligi sharoitida qisqa muddatli resurslarning ortiqchaligini samarali boshqarish, banklarning depozit bazasida muddatli va jamg'arma depozitlar ulushini oshirish hamda muammoli va muddati o'tgan kreditlarni keskin qisqartirish borasida sezilarli ijobjiy natijalarga erishilmoqda. Ushbu sa'y-harakatlar bank tizimining transformatsiya jarayonida raqobatbardoshligini va moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"Likvidlilik" atamasi tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi, ishonchliligi va to'lovga qobiliyatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich sifatida XIX asr boshlarida shakllana boshlagan. Bu davr davomida ushbu tushuncha rivojlanishning o'ziga xos yo'lini bosib o'tdi, uning shakllanishida turli nazariy maktablar va yondashuvlar vujudga keldi. Xususan, klassik, ma'muriy, psixologik, axloqiy va ruhiy yondashuvlar bank sohasining amaliy ehtiyojlariga mos ravishda o'zaro uyg'unlashgan holda rivojlangan.

"Likvidlilik" termini lotin tilidagi "liquidus" so'zidan olingan bo'lib, "suyuq", "oqimchan" yoki "osonlik" bilan sotilishi va pulga aylantirilishi mumkin bo'lgan aktiv" ma'nolarini anglatadi. Banklar uchun likvidlik – bu moliyaviy barqarorlik va ishonchlilikni ta'minlash, o'z vaqtida to'lovlarni amalga oshirish va bankrotlik xavfini kamaytirish imkonini beruvchi zaruriy shart hisoblanadi.

Atamaning iqtisodiyotdagi ko'p qirraliligi tijorat banklarining o'zaro bog'liq funktsiyalari bilan izohlanadi. Banklar iqtisodiy jarayonlarda bo'sh turgan mablag'larni jalb qilish, pul aylanishini tartibga solish va iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. "Likvidlik" tushunchasi O'zbekistonga XX asr boshlarida nemis iqtisodchilarining ilmiy asarlari orqali, xususan "bank balans likviditeti" (Liquidität) atamasi shaklida kirib kelgan. O'sha davrda bank balansining likvidligi deganda bank aktivlarining joriy majburiyatlarni qoplash uchun tezda naqd pulga aylantirilishi tushunilgan. Balans likviditetining asosiy elementlari sifatida kassadagi naqd pul, xorijiy valyuta birligi, vakillik hisobvaraqlardagi mablag'lar va yuqori darajadagi ishonchga ega veksellar ko'rsatilgan [2].

N. Ruziev ilmiy tadqiqotlarida banklar faoliyatini transformatsiya qilishda raqamlashtirish va raqamli texnologiyalarning o'rni, shuningdek, bank xizmatlardan masofadan foydalanish imkoniyatlari xorijiy tajriba asosida tahlil qilingan. Uning fikriga ko'ra, "bank ekotizimi orqali bank va mijoz o'rtafigi



jismoniy kontaktlarsiz moliyaviy operatsiyalar, ya'ni elektron tijorat inson omilisiz amalga oshiriladi" [3].

XX asr 30-yillarining ikkinchi yarmida yuzaga kelgan Buyuk Depressiyadan so'ng, J. Keynes tomonidan ishlab chiqilgan makroqtsodiy ta'lilot bank sohasida ham chuqur o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Keynes o'zining "Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi" asarida "likvidlikni afzal ko'rish" nazariyasini ilgari surib, xo'jalik subyektlarining daromadlarini pul shaklida saqlash istagini va iqtisodiy shartnomalarni amalga oshirishda pul mablag'laridan foydalanishning afzalligini asoslab bergen [4].

Hozirgi vaqtida O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va barcha sohalarga, jumladan davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligiga zamонавиу axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [5].

T. Qoraliyevning ta'kidlashicha, "bank likvidligi – bu bankning mavjud moliyaviy majburiyatlarini qoplash uchun o'z aktivlarini naqd pulga aylantirish yoki ular qiymatini saqlagan holda tezkorlik bilan realizatsiya qilish qobiliyatidir" [6]. Sh. Z. Abdullayeva esa tijorat banki likvidligini "bankning o'z mijozlari oldidagi moliyaviy majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida bajarish qobiliyati" sifatida ta'riflaydi [7]. O. B. Sattarov fikricha, "bank likvidligi – bu bankning mavjud va kutilayotgan majburiyatlar hamda kredit bo'yicha mijoz talablarini o'z vaqtida va belgilangan miqdorda qondira olish, aktivlarni zarar ko'rmasdan naqd pulga aylantirish yoki maqbul shartlarda moliyaviy resurslarni jaib qilish imkoniyatidir" [8].

Shuningdek, tariflarda bank faoliyatining umumiyligi miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari, aktivlarning o'sishini moliyalashtirish, moliya bozoridan asosiy va qo'shimcha likvid mablag'larni jaib qilish va risklarni kamaytirish kabi jihatlar yetarlicha qamrab olinmagan.

Yuqoridagi turli manbalarda berilgan ta'riflar bank likvidligi mohiyatini har tomonlama ifodalaydi. Xususan, barcha ta'riflarda pul munosabatlari va vaqt faktori bilan bog'liq jihatlar alohida ajralib turadi. Umuman olganda, bank likvidligi deganda – banklarning qisqa muddatli to'lov majburiyatlarini va mijozlarning mablag'larini qaytarish ehtiyojini qondirish uchun aktivlarni tez va samarali naqd pulga aylantirish qobiliyati tushuniladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada ilmiy abstraktsiyalash, guruhlash, taqqoslash, retrospektiv va istiqbolli tahlil, empirik tahlil hamda boshqa ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Ilmiy abstraktsiyalash usuli orqali banklarda likvidlikni ta'minlash yo'llarining nazariy, tashkiliy va huquqiy asoslarini takomillashtirish zarurati ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligi asoslab berildi. Shuningdek, taqqoslash usuli yordamida jahon amaliyoti va rivojlangan mamlakatlar tajribasida bank likvidligini oshirish uchun qo'llanilayotgan tashkiliy-huquqiy mexanizmlar O'zbekiston tajribasi bilan solishtirilib, mavjud farqlar va ularni bartaraf etish imkoniyatlari tahlil qilindi. Natijada, banklar faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda banklarning likvidlik xavfi bo'yicha risk-appetit bayonoti bankning stress sharoitida ham Markaziy bankning tezkor yordamisiz to'lov va hisob-kitob majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida bajarishini ta'minlashni nazarda tutishi zarur. Likvidlik tavakkalchiligi bo'yicha risk-appetit quyidagi miqdoriy ko'rsatkichlarni o'z ichiga olishi lozim:

yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlardagi eng kam ulushi;

likvidlikni qoplash koeffitsienti va sof barqaror moliyalashtirish koeffitsientining minimal darajalari;

majburiyatlar va aktivlarning muddatlari o'tasidagi nomutanosibliklarni tahlil qilish asosida 30 kun va bir yilgacha bo'lgan davrda pul oqimi va chiqimi o'tasidagi salbiy umumiy tafovutning maksimal qiymati;

bankning eng yirik yakka omonatchisi va (yoki) kreditori, shuningdek yigirma nafar eng yirik omonatchilar va (yoki) kreditorlar va ular bilan aloqador shaxslar ulushi konsentratsiyasining maksimal darajasi.



Jahon tajribasiga ko'ra, 2025-yildan boshlab "Amazon", "Google", "Tencent" va "Alibaba" kompaniyalari dunyodagi eng yirik depozit tashkilotlari va ixtisoslashgan fintech kompaniyalariga aylanishi kutilmoqda. Bu kompaniyalar tomonidan bir kun ichida amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiyalar soni an'anaviy bank va bank filiallariga tashrif buyuradigan mijozlar sonidan oshib ketishi, aholining deyarli 40 foizi esa to'liq raqamli moliyaviy mahsulotlardan foydalanishga o'tishi proqnoz qilinmoqda. Shu bilan birga, amalga oshiriladigan xaridlarning qariyb 25 foizi internet orqali amalga oshiriladi.

2030-yilga kelib, rivojlangan davlatlar naqd pulsiz to'lov larga to'liq o'tadi, raqamli texnologiyalar esa bank sektorida 30 foizdan ortiq ish o'rinalining qisqarishiga olib kelishi kutilmoqda. Ana shu sharoitda tijorat banklari o'z e'tiborini, avvalo, bank mahsulotlarini yaratish, yangilash va tarqatish tezligini oshirishga, prototiplash va foydalanish madaniyatini rivojlantirishga hamda raqamli omnikanal muhitda iste'molchilar bilan o'zaro aloqaning innovatsion modellarini shakllantirishga qaratadi. Bu jarayon kasbiy moslashtirish strategiyasi va uning missiyasini shakllantirishni ham o'z ichiga oladi (1-jadval).

1-jadval. Bank faoliyatida zamonaviy raqamli texnologiyalarning qo'llanilish jarayoni¹.

Bank texnologiyasining rivojlanish bosqichlari	Xususiyati	Samaradorlik mezoni
Bank 1.0 (1472 –1980 yy.)	an'anaviy bank faoliyatini aks ettirib, muayyan vaqt oralig'ida mijozning aynan tashrifiga asoslangan	Bank faoliyatining samarali faoliyati
Bank 2.0(1480 –2007 yy.)	Mijozlarga ish vaqtidan tashqari bank xizmatlarini ko'rsatish, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish tizimini joriy etish orqali zamonaviy bank mahsuloti va xizmatlari ko'rsatish	
Bank 3.0 (1480–2007 yy.)	Mobil pul o'tkazmalari va to'lovlar, R2R-o'tkazmalari va mobil-banking tufayli bank mahsulotlari va xizmatlarini raqamlashtirish, multikanalli sotish imkoniyatining paydo bo'lishi	Bank faoliyatida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish
Bank 4.0 (2007–h.v.)	Texnologik innovatsiyalar tufayli real vaqt rejimida mavjud bo'lgan va ko'rsatiladigan bank xizmatlari. Mijozlар bilan samarali munosabatlarni yo'lga qo'yish, raqamli muhitda omnikanalli sotish tizimni yo'lga qo'yish	

¹ Муаллиф ишланмаси



Bankda likvidlik xavfini boshqarish siyosatidan chetlanish va likvidlik xavfi bo'yicha belgilangan chegaralarning buzilishi holatlari aniqlanganda, bir ish kunidan kechiktirmay Kuzatuv kengashi va Bank Boshqaruvi xabardor qilinishi shart.

Bank ichki tizimida quyidagi holatlarni o'z vaqtida aniqlash va monitoring qilish mexanizmlari joriy etilishi lozim:

- yirik hajmdagi majburiyatlarning to'planishi (konsentratsiyasi);
- likvidlik tanqisligi yuzaga kelishi va (yoki) likvidlikni ta'minlash imkoniyatining pasayishi;
- yuqori likvidli aktivlar hajmining sezilarli darajada kamayishi;
- bozordagi o'zgarishlar natijasida likvidlik bilan bog'liq muammolar yuzaga kelishi ehtimoli.

Tijorat banklarining to'lovga qobiliyligini va balanslarining likvidlik darajasini tavsiflovchi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar sifatida kapitalning yetarlilik koeffitsienti va joriy likvidlik koeffitsienti belgilangan. Chunki aynan ushbu ikki me'yorning bajarilishi bankning o'z vaqtida to'lov majburiyatlarini ado etish imkoniyatini kafolatlaydi(2-jadval).

2-jadval. Bank tizimi likvidlilik dinamikasi².

Ko'rsatkichlar nomi	01.03.2024 y.	01.03.2025 y.
Yuqori likvidli aktivlar (mlrd. so'm)	93 556	138 967
Yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlarga nisbati, foizda	14,4%	17,8%
Likvidlilikni qoplash me'yori	154,6%	194,7%
(min. talab 100%)	111,3%	115,9%
Sof barqaror moliyalashtirish me'yori	96,5%	124,4%

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlariga ko'ra, yuqori likvidli aktivlar o'tgan yilning shu davriga nisbatan 45 411 milliard so'mga oshgani kuzatilmoxda. Yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlarga nisbati esa 3,4 foizga o'zgarish qayd etgan. Ushbu ko'rsatkichlar mamlakatimiz bank tizimida likvidlik darajasi barqaror saqlanayotganini tasdiqlaydi.

Ilmiy adabiyotlarda tijorat banklarining likvidligini tarkibiy tasniflash va baholash prinsiplari borasida turli munozaralarga duch kelinadi. XIX asr va XX asr boshlarida bank likvidligi mohiyati hozirgi kunga kelib mazmunan o'zgarib, uni zamонави iqtisodiy talablar asosida qayta ko'rib chiqish zarurati vujudga kelgan. Fikrimizcha, bank likvidligi ma'lumotlari asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun likvidlikni tasniflash va tavsiflash o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Likvidlikni chuqurroq tasniflash orqali uning mohiyatidagi ilgari ochilmagan ichki qirralar aniqlanadi (3-jadval).

Demak, bank likvidligini jadval shaklida tasniflash, uning mohiyatini zamонави iqtisodiy sharoit va talablar bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Bank likvidligi mohiyatidagi ichki qirralar esa umumiyl, ma'muriy, innovatsion va korporativ yondashuvlar asosida baholanadi.

Xususan:

- Umumiyl yondashuv asosida bank likvidligi umumjamiyat va uning alohida sohalari kesimida tavsiflanadi, bunda bankning iqtisodiyotdag'i roli asosiy mezon sifatida qabul qilinadi;
- Ma'muriy yondashuv asosida tijorat banklarining likvidlik darajasi Markaziy bank tomonidan baholanadi;
- Innovatsion yondashuv bank aktivlari, majburiyatlar va kapitalining zamонави texnologiyalar asosida yangilanishi va o'sishini tahlil qilishni nazarda tutadi.

² <https://cbu.uz/oz/statistics/bankstats/2243724/>

3-jadval. Bank tizimi likvidligini tasniflash tartibi³.

Tasnifi	Tavsifi	Tarkibi
Darajasiga ko'ra	Yuqori likvidli aktivlar Likvidli aktivlar Kam likvidli aktivlar Nolikvidli aktivlar	Naqd pullar; qimmatli metallar, toshlar va tangalar; Markaziy bankdagi vakillik hisobvaraqlar; boshqa banklardagi vakillik hisob varaqlari; davlat qisqa muddatli obligatsiyalari; transmilliy kompaniyalarning qimmatli qog'ozlari; qisqa muddatli (7 kungacha) banklararo kreditlar
Muddatiga ko'ra	Lahzali likvidlilik Joriy likvidlilik Uzoq muddatli likvidlilik	1 kunlik; 2 kundan 7 kungacha; 8 kundan 30 kungacha; 31 kundan 90 kungacha; 91 kundan 180 kungacha; 181 kundan 1-yilgacha; 1-yildan 3-yilgacha; 3-yildan ortiq
Manbaiga ko'ra	Jamg'arilgan likvidlilik Sotib olingan likvidlilik	Jamg'arilgan mablag'lar Sotib olingan mablag'lar
To'lov vositasiga ko'ra	Naqd pullar shaklida Naqdsiz pullar shaklida Xorijiy valyuta shaklida Qimmatli qog'ozlar shaklida	Naqd pullar Naqdsiz pullar Xorijiy valyuta Qimmatli qog'ozlar
Obyektiga ko'ra	Bank aktivlari Bank passivlari Bank balansi Bank tizimi Moliya bozori shaklida	Bank aktivlari tarkibi Bank passivlari tarkibi Bank balansi tarkibi Bank tizimi tarkibi Moliya bozori tarkibi
Aktivlarning umumiy baho-siga ko'ra	Haqqoniy baho Bazis baho	Haqqoniy baho Bazis baho Bozor bahosi
Aktivlarning xavfsizligiga ko'ra	Ortiqcha likvidlilik Me'yordagi likvidlilik Taqnislik likvidlilik	Likvidlilikning ortiqchaligi Me'yordagi likvidlilik Likvidlilikning taqnisligi
Rivojlanish darajasiga ko'ra	Tez sur'atda rivojlanayotgan likvidlilik Bir maromda rivojlanayotgan likvidlilik Notekis rivojlanayotgan likvidlilik	Tez rivojlanayotgan Bir maromda rivojlanayotgan Notekis rivojlanayotgan
Iqtisodiy muhitga ko'ra	Iqtisodiy muhitning bir maromda rivojlanayotgan vaziyatdagi likvidlilik	Iqtisodiy muhitning bir maromda rivojlanishi

Ta'kidlash joizki, bank amaliyotida ko'pincha kreditga layoqatlilik dinamik tushuncha sifatida, to'lovga qobiliylik esa subyektning vaqtinchalik holati sifatida talqin qilinadi. Fikrimizcha, bu masala faqatgina majburiyatlarning bajarilishi bilan emas, balki vaqt omilining o'zgaruvchanligi bilan ham bevosita bog'liqdir. Bankning to'lovga qobiliyligi va kreditga layoqatliliqi iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida aniqlanadi.

Shu bilan birga, bank likvidligi ma'lumotlari asosida boshqaruva qarorlarini samarali qabul qilish uchun "likvidlik", "to'lovga qobiliylik" va "kreditga layoqatlilik" atamalarini ilmiy asosda tasniflash zarur. Ushbu atamalarni tasniflash orqali ularning ilgari ochilmagan ichki mohiyati aniqlanadi va iqtisodiy mazmuni kengroq ochib beriladi (4-jadval).

³ Муаллиф ишланмаси



4-jadval. Likvidlik, to'lovga qobiliylik va kreditga layoqatilik tushunchalarining tasnifi va iqtisodiy mazmuni.

Tasnif belgilari	Mazmuni
Kelib chiqishiga ko'ra	Kreditga layoqatilik – bu subyektlar o'tasida tuzilgan bitimga muvofiq ishonchning bildirilishidir. To'lovga qodirlik – bu bank faoliyatidagi to'lovning oddiy shaklidir. Tovar likvidliliği – bu tez va to'siqlarsiz almashinuv qiymatini saqlab qolish imkoniyatidir. Xo'jalik yurituvchi subyektning likvidliliği – bu pulning umumiyligini ekvivalent shaklida paydo bo'lishidir.
Majburiyatlarga ko'ra	Kreditga layoqatlik va to'lovga qodirlik – bu subyektning qarz majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq munosabatlardir. Likvidlilik – bu bankning pul majburiyatları bilan bog'liq imkoniyatidir.
Baholash obyektiga ko'ra	Kreditga layoqatlik – bu kreditor belgilaydigan baho obyektidir; To'lovga qodirlik va likvidlilik – bu davlat nazorat organlari va kontragentlar tomonidan baholash obyekti sifatida yondoshuvdir.
Shakllanish shartlariga ko'ra	Kreditga layoqatlik asosida subyektga ishonch bildirishi, to'lovga qodirlik asosida bank likvidliliği quyidagi shartlar asosida shakllanadi: balans likvidliliği, pul oqimlarining sinxronizatsiyasi, kapital yetarliligi, aktivlar sifati, depozitlar barqarorligi.

Tijorat banklarining likvidligi to'lovga qobiliylik, bank likvidligining me'yoriy-huquqiy asoslari, ishonchlilik, barqarorlik, kreditga layoqatilik hamda bank likvidligini tartibga solish prinsiplaridan ajralmas holda shakllanadi va ushbu elementlarning o'zaro uyg'un harakatlanishi bank tizimining yaxlitligini ta'minlaydi.

Tijorat banklari likvidligining me'yoriy-huquqiy asoslari birlamchi ahamiyat kasb etuvchi tushuncha bo'lib, unda bank likvidligini tartibga solishning asosiy prinsip va mexanizmlari to'liq ifodalangan bo'lishi zarur. O'z navbatida, tijorat banklarining likvidlik darajasi o'ziga xos uslublar va tartibotlar orqali tartibga solinadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bank likvidligi va to'lovga qobiliylik tushunchalari o'tasida uzviy aloqadorlik mavjud bo'lib, ular o'zaro farqlansa-da, bankning o'z majburiyatlarini bajarish jarayoniga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Bank likvidligi to'lovga qobiliylikning zaruriy va majburiy sharti sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, bank likvidligi bilan bog'liq atamalar rivojlanishda davom etib, tizimning umumiy holati va iqtisodiyotdagi o'zgarishlarga hamda muayyan davr oralig'ida yuz beruvchi omillarga kuchli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Masalan, inflyatsiya darajasining oshishi banklarning likvidlik darajasi, to'lovga qobiliyligi, moliyaviy barqarorligi va kreditga layoqatiliginining zaiflashishiga olib keladi, natijada banklarga bo'lgan ishonch darajasi pasayadi.

Bank likvidligini nazariy-uslubiy jihatdan tahlil qilishda quyidagi talablarning bajarilishi zarur:

- Bank likvidligini baholashda foydalilaniladigan axborot manbalari ishonchli va aniqligi ta'minlangan bo'lishi kerak, chunki bu bank likvidligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bank risklarini oldindan bashorat qilish imkonini beradi.



- Bank likvidligini haqqoniy baholash tizimini shakllantirishda axborot bazasining to'laqonliligi va ishonchhliligi muhim rol o'yнaydi. Bunda muammoni tahlil qiluvchi mutaxassisning kasbiy tayyorgarlik darajasi ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, banklarning likvidlik siyosatini samarali boshqarish uchun, moliyaviy axborotlarning sifat darajasini oshirish, likvidlikka ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillarni tizimli ravishda monitoring qilish, shuningdek, bank xodimlarining malakasini doimiy ravishda oshirib borish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Yevropa Markaziy banki rasmiy veb-sayti – <https://www.ecb.europa.eu>
2. Buxvald B. Texnika bankovskogo dela. – M.: AO, 1994. – 234 s.
3. Ro'ziev, N. (2022). Tijorat banklari faoliyatini transformatsiya qilishda raqamlashtirish va raqamli texnologiyalarning tutgan o'rni. Iqtisodiyot va ta'lim, 23(4), 60–73.
4. Keyns J.M. Umumiy bandlik, foiz va pul nazariyasi. Tarjimasi ingliz tilidan. – M.: Gelios ARV, 1999. – 352 s.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmoni.
6. Qoraliyev T., G'. Yaxshiboev (2006). Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy ta'minlash mexanizmi. – Toshkent: Akademiya. – B. 98–99.
7. Abdullaeva Sh. Bank ishi. – T.: Iqtisod-moliya, 2010. – 180 b.
8. Sattarov O.B. Tijorat banklari likvidligini ta'minlashni takomillashtirish. I.f.d. ilmiy daraja olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent: BMA, 2008. – 18 b.
9. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 22-iyuldaggi 19/14-soni (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 13-avgustda 2709-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) "Tijorat banklarining likvidligini boshqarishga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi qarori" // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – T., 2015. – №32, 141–152-betlar.

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100